

TEMURIYLAR DAVLATIDA GAVHARSHODBEGIMNING BUNYODKOR SHAXS SIFATIDA TUTGAN O‘RNI

Umarova M.

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot
I instituti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Gavharshodbegimning Temuriylar davlatida tutgan o‘rni, obodonchilik, qurilish, fan va madaniyatga qo‘shgan hissasi tarixiy manbalar orqali ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Shohrux Mirzo, Gavharshodbegim, Mirzo Ulug‘bek, Xuroson, Hirot, maqbara, madrasa, xonaqoh.

Bugungi kunda yurtimizda xotin-qizlarga yuksak imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayollar har jabhada ulkan yutuqlarga erishmoqda. Davlat boshqaruvida ham ayollarning amalga oshirayotgan ishlari diqqatga sazovor. Xotin –qizlarga e‘tibor yuqorilani bormoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning ham “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab – quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish to‘g‘risidagi” farmoni bunga yaqqol misol bo‘ladi.

Xotin-qizlarga e‘tibor qadimdan yuqori baholanib kelganligini hozirgi kunda ham bu ishlarning davom etayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Davlat boshqaruvida ham ijtimoiy hayotda ham ayollarning roli beqiyosdir.

Mamlakatimiz tarixida Temuriylar davri alohida o‘rin tutadi. Chunki bu davrda Movaraunnahr siyosiy, iqtisodiy, madaniy jihatdan yuksak taraqqiy etdi. Amir Temur bahodir jangchi, buyuk sarkarda, yirik davlat arbobi bo‘lishi bilan birgalikda ilm-fan, madaniyat, qurilish, obodonlashtirish ishlariga ham buyuk hissa qo‘shgan. Amir Temur faqat Movaraunnahrda emas, balki Movaraunnahrdan ancha uzoqda bo‘lgan yerlarda ham obodonchilik va qurilish ishlarini olib borgan.[2:41-b.] Amir Temurning qurilish, mamlakatni rivojlantirish, obodonlashtirish ishlariga malikalar ham o‘z hissalarini qo‘shganlar. Xususan, Bibixonim va Gavharshodbegimlar Samarqand va Hirotida masjid va madrasalar qurilisiga homiylik qilganlar.

Xuroson Shohrux Mirzo davrida siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha rivojlandi, ko‘plab xayri ishlar amalga oshirildi. Masjidlar, madrasalar, xonaqohlar, rabotlar, sardobalar, qishloq va qo‘rg‘onlar qurilib, mazkur qurilishlar vaqf mulklari bilan ta‘minlandi. Shohrux Mirzoning mo‘tadil ichki va tashqi siyosati Xurosonda tinchlikning barqaror bo‘lishiga olib keldi. Bu davrda tijorat,

hunarmandchilik, dehqonchilik yuqori darajaga ko'tarila boshladi. Ayniqsa, hunarmandchilik, me'morchilik, o'ymakorlik, xattotlik, muqovasozlik hamda qog'oz ishlab chiqarishga katta e'tibor berildi. Shuningdek, metalni qayta ishlash, qurilish asbob-uskunalarini tayyorlash, kulolchilik san'ati o'sdi. Bulardan tashqari zargarlik, kashtado'zlik, kandakorlik, shohi va boshqa xil matolar to'qib chiqarishga e'tibor kuchaydi. Juladan mahalliy va xorijdan olib kelingan xomashyolardan banoras, atlas kabi matolar ishlab chiqarila boshlandi. Shu kasbning mohir ustalari yetishib chiqdi. XIV-XV asrlarda Xurosonda kulolchilik san'ati spool buyumlar bilan bir qatorda suv inshootlarida, ulkan binolar qurilishida ishlatiladigan spool quvurlar, xilma-xil shakl va ranglar bilan jilolangan spool koshinlar ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yildi.

Asrlar osha faoliyat olib brogan, bugunga kelib, o'z qadr-qimmatini topgan oily madrasa bunyodkori Mirzo Ulug'bekning fidoiyiligi haqida so'z ketganda, bevosita uni ilm ahliga hadya etgan validai muhtaramasi Gavharshodbegimning yorqin siymosi ko'z oldimizga keladi. U temuriylar sulolasida yorqin yulduz, shohlar ichidan chiqqan buyuk olim, bunyodkor inson Mirzo Ulug'bekning onasi Gavharshodbegim bo'lib, o'zining donoligi, tadbirkorligi, bunyodkorligi bilan tarixga o'z nomini muhrlagan malikalardan biri.

Bo'lg'usi malika Xorazmda hukmronlik qilgan so'fiylar sulolasiga mansub, Chig'atoy ulusi nayman amirlaridan G'iyosiddin Tarxonning qizi bo'lib Amir Temurning to'rtinchi o'g'li, Xuroson hukmdori Shohrux Mirzoning rafiqasidir.

Muarrix Sharafiddin Ali Yazdiy Shohrux Mirzo va Gavharshodbegimning to'ylari temuriyzoda Muhammad Sulton va PirMuhammad Mirzo bilan birga o'tganligini quyidagicha ta'riflaydi: "Har biriga bir huri najot qizni sha'riy mutahhara yo'sina bila berdi va Bog'I Bihishtda to'y qildi". Bu voqea xijriy 790 (milodiy 1388) yilda sodir bo'ladi. Nikoh marosimidan so'ng ular Hirotga qaytib keladilar. Bu nikohdan uch o'g'il (Ulug'bek Mirzo, Boysunqur Mirzo, Jo'ku Mirzo) va ikki qiz farzand tug'iladi. Shohrux Mirzo niyoyatda halim tabiat, madaniyatli kishi bo'lib, farzandlari va nabiralariga qanchalik e'tiborli bo'lgan bo'lsa, ularni dunyoga keltirgan malikalarning hurmatini hamisha o'z o'rniga qo'ygan. Ayniqsa, Gavharshodegim o'z aql-idroki, tadbirkorligi, husnu latofati bilan Shohrux Mirzoning ishonchini qozongan. Ayrim paytlarda u devon va saltanatni boshqarishda Gavharshodbegimning maslahatiga tayangan. Hatto, devon ishlarini boshqarish, lavozimiga tayinlash, i'nom berish, aybdorlarni jazolash huquqiga ham ega bo'lgan.

Shohrux Mirzo mamlakat istiqbolini ko'zlab Xitoy va Hindiston hukmdorlari bilan diplomatik munosabatlarni yaxshilashga harakat qildi. Mazkur mamlakat elchilari Samarqand va Hirotga, o'z navbatida G'iyosiddin Naqqosh rahbarligida Xitoyda, Abdurazzoq Samarqandiy boshchiligidagi elchilar Hindistonda bo'ldilar. Shohrux Mirzo Hirot shahar qal'asining janub tomonida (1410-1411)

madrasa va xonaqoh bino qildirdi. Bu paytda Hirot va umuman Xurosonda madaniy va maishiy qurilishlar keng quloq yuzadi.

Shohruh 1405-yilda Temuriylar saltanatining poytaxtini Samarqanddan Hirotga ko'chirdi. Shundan keyin temuriylar malikasi Gavharshodbegim tomonidan majmua qilishi buyurilgan va 1417-yilda shunga o'xshash madrasani qurgan me'mor Qavamiddin Sheroziy boshchiligida qurilish ishlari boshlandi. Madrasa 1417-1426 yillar orasida qurilgan, ehtimol taxminan 1432-yilda qurilgan. Majmua asosiy kirish eshigining ikki tomonida sharqiy jabhada ikki minora va uning shimoliy-g'arbiy burchagida maqbaradan iborat bo'lgan

Tabiatida bunyodkorlik xususiyati bo'lgan malikaning farmoniga ko'ra, Mashhaddagi mashhur qadamjo bo'lgan Imom Rizo qabri yonida 1418-yilda g'oyatda hashamatli masjidi jome qurilishi boshlanadi. Muarrix Abdurazzoq Samarqandiy bu qurilish haqida ma'lumotlar berib o'tgan. Manbalarda berilgan ma'lumotlarga ko'ra, Gavharshodbegimning to'ng'ich farzandi Mirzo Ulug'bekning tarbiyasi go'dakligidayoq Samarqandga keltirilib Bibixonimga topshirilgan. Malika o'g'lini ko'rish uchun Samarqandga kelib turgan. Malikaning navbatdagi tashrifi 1420-yilga to'g'ri keladi. Bu sanada Mirzo Ulug'bek o'zi barpo etgan madrasayi oliyani qurib bitkazgan bo'lib, o'z faoliyatini boshlagan edi. Mirzo Ulug'bek barpo etgan ulug'vor madrasayi oliyani ko'rgach, uning go'zalligiga maftut bo'lgan malika Hirotida ham shunday madrasa qurish niyatini ko'ngliga tugadi. Shunda u madrasaning tarhini chizgan me'mor va mohir ustalar kim ekanligini bilishga qiziqadi va ularni Hirotga taklif etib, qurilish ishlarini boshlab yuboradi. Oradan 12 yil o'tib, Hirotida Musallo ansambli qad ko'taradi. Musallo ansambli qad ko'targan inshootlarni ko'rgan Samarqandiy, ayniqsa, madrasaning muhtasham va baland bo'lib qurilganligini, me'morlarning mahoratiga, naqqoshlarning zeb bergan naqshiga yuksak baho beradi. Madrasaning ochilish marosimi juma kuniga to'g'ri kelgan bo'lib, bu marosimda Shohruh Mirzo ham qatnashganligi manbalarda qayd etilgan.

Shohruh davrida Hirotida qurilgan eng katta yodgorliklardan biri malika Gavharshodbegim tarafidan qurilgan Madrasa va mazkur Madrasa yonida qad ko'targan xonaqodir. Mamlakatning madaniy jihatdan yuksalishida Gavharshodbegimning hissasi beqiyosdir. Tabiatdan vatanvarvar, zukko bo'lgan Gavharshodbegim juda ko'p qurilish ishlariga rahnamolik qildi. Bu davrda Hirotida masjid-madrasalar, xonaqoh, maqbara, dahma, musofirxona, shifoxona, ravot, ko'prik va sardobalar qurib bitkazildi. Xususan, Gavharshodbegim Hirotida ikkita madrasa qurdirdi. Hirotida Gavharshodbegim qurdirgan madrasa uning vafotidan so'ng ham o'z davri uchun, ham keyingi avlodlar uchun, ham ilm-ma'rifat, ziyo maskani bo'lib xizmat qildi. Gavharshodbegim ma'rifatparvar sifatida qurdirgan madrasasi, masjidu-xonaqohi, me'moriy inshootlari bilan tarixga o'z nomini muhrlagan malikalardan biridir.

Madaniy va ma'rifiy hayot birinchi galdagi vazifasi bo'lgan Gavharshodbegim o'zining oqilaligi, tadbirkorligi, qurilish, obodonlashtirish ishlariga qo'shgan ulkan hissalari, qurdirgan imoratlari bilan temuriylar tarixida o'chmas iz qoldirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. T.Fayziyev. Temuriy malikalar-Toshkent A.Qodiriy.1994
2. T.Fayziyev. Temuriylar shajarasi-Toshkent.Yozuvchi.1995.
- 3.Абдураззо Самарандий.Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн/Фурс тожик тилидан таржима кириш сузи ва изоҳли луғатлар А.Урибоев.Ж. II-III.1429-1470-йил воеалари.-Т.;Узбекистон,2009.-832 б.
- 4.Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. Сўз боши, тадбил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А. Ахмад ва Ҳ. Ваҳобеков.-Т.:Шарқ, 1997.-384 б.
- 4.Ravshanov.P.Amir Temur sulolasi.-Т.;Yangi asr avlodi,2021.